

**OYAT VA HADISNI TO'G'RI TALQIN QILISHNING HOZIRGI KUNDAGI
AHAMIYATI**

Xalikov Nurullo Jurayevich

magistr, rahbar

Turayev Bobur Qobil o'g'li

*Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim Muassasasi 4-kurs talabasi
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Zargarlik ko'cha 4-uy*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oyat va hadislarni to'g'ri talqin qilishning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy matnlarni noto'g'ri tushunish va talqin qilish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oyat va hadislarni talqin qilishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan usullar va tamoyillar bayon etilib, to'g'ri talqinning jamiyat barqarorligiga ta'siri ta'kidlanadi. Maqola mazmunli diniy bilimlarni rivojlantirish va jamiyatda sog'lom diniy tafakkur muhitini shakllantirishga xizmat qiladi*

Kirish

Albatta, Qur'on va hadisdan hukm olish, undagi hukmlarni istinbot qilish (chiqarib olish) har kimning ham qo'lidan kelmaydi. Buning uchun, kishini fatvo rutbasiga, Islomning asosiy masdarlaridan hukm olishga haqli qiladigan o'nlab ilmlarni yaxshilab egallash bilan birga yana ikki ilmlarni bilish lozimligi aytiladi.

Birinchisi: Voqelikni fahmlash ilmi.

Ikkinchisi: Voqelikda nima vojibligini fahmlash.

Qisqa qilib aytganda, fahm-farosat ilmiga ega bo'lmog'i ham lozim ekanligini uqtirganlar. Birinchisi fatvoni kitobdagi ilmlarni nazardan qochirmagan holda voqelikni hisobga olib chiqarish bo'lsa, keyingisi masala so'ralgan holatga aynan nima muvofiqligini fahmlash darkor. Bu ikki ilm insonda harakat va o'rganish bilan qozonilmaydi. Balki ular bandada tabiatan mavjud bo'lib, buni Alloh bergan, deyiladi. Shuning uchun ham bu so'zlarni ushbu masalada so'z yuritishdan avval aytib qo'yildi, toki o'quvchi arab tilini o'rganish, ba'zi shar'iy ilmlarni bilish va hadislarni yodlash bilan mujtahid bo'lib qolmasligini anglab yetsin. Qur'on va hadisdan hukm olishga kim haqli, degan savolga mujtahid darajasiga yetgan faqih olim zotlar haqli, degan javob beriladi. Xo'p, mujtahid kim? Bu darajaga yetishning shartlari qanday? Arab tilidan xabari bor kishilar o'zlari Qur'on hadisni tushunib, o'zlari uchun kerakli ko'rsatmalarni olib keta olmaydimi? Bu kabi savollarga quyida javob topishga harakat qilamiz. Avvalo, mujtahid kimligini o'rgansak. Mujtahid so'zining o'zagi "ijtihad" bo'lib, "jahd" yoki "juhd" o'zagidan olingan. Qaysi ishda bo'lmasin, bor kuch-quvvatni sarflash ma'nosini bildiradi. Istilohda esa, dinimiz hukmlarini bilishga bor ilmiy kuch va salohiyatini

sarflash ijtihoddir. Ammo bu ta'rifdan istagan kishi o'zidagi bor ilmiy kuch-quvvatni sarflab, mujtahid bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqib kelmasligi uchun ulamolar "shar'iy hukmlarni bilishga faqihning bor kuchini sarflashi", deb ta'rifga "faqih" so'zini qo'shimcha qilishgan. "Faqih"dan murod esa mujtahiddir.¹⁰

"Nuru-l Anvor" kitobining sohibi mujtahidda quyidagi shartlar topilishi talab etilishini aytganlar:

"Ijtihadning sharti Kitob (Qur'on) ilmlarini barcha lug'aviy va shar'iy ma'nolari bilan bilish hamda sunnat ilmlarini barcha yo'llari bilan anglash. Shuningdek, qiyosning barcha yo'nalishlarini turlari bilan bilishdir."

1. Qur'oni karimni bilish:

Mujtahid Alloh taoloning Kitobini yaxshi bilishi shart. Zero, Qur'oni karim birinchi shar'iy manba bo'lib, mujtahidning unga suyanishi vojibdir. Qur'oni karimni bilish uning ma'nolarini qisqacha tu-shunish emas. Mujtahid Qur'oni karimga doir barcha ilmlarni chuqur bilishi va bu sohada mohir bo'lishi kerak. Faqih va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi kerak. Ammo Qur'oni karimni to'la yod bilishi shart bo'lmaydi. Mujtahid Qur'oni karim oyatlaridan hukm chiqarishda zarur oyatlarni topish va ularga murojaat qilish yo'llarini yaxshi bilishi kerak. Qur'oni karimni bilishda vojib bo'lgan ilmlar quyidagilardir:

- nosix va mansux haqidagi ilm, mujtahid mansux oyatlardan hukm chiqarmasligi, balki nosix oyatlardan hukm chiqarishi kerak;
- mutlaq va muqayyad oyatlar haqidagi ilm;
- sababi nuzul - oyatlarning tushish sabablariga doir ilm va boshqalar.

2. Sunnat ilmini bilishi:

Mujtahid Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam sunnatlarini yaxshi bilishi vojib. Zero, sunnat Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi man-badir. Sunnat ilmi Qur'oni karimda kelgan hukmlarni oydinlashtiradi va batafsil bayon qilib beradi. Sunnat ilmidan xabarsiz kishi hech qachon mujtahid bo'la olmaydi. Mujtahid Payg'ambarimiz alayhissalom sunnatlarini o'rganib, hadisga taaluqli quyidagilarni bilishi lozim:

- "sahih", "hasan" va "zaif" hadislarni bilishi;
- hadis roviylarining tarixini bilishi. Bu narsa "sahih" hadislarni "zaif" hadislardan ajratishda, maqbul hadislarni rad etilganlaridan farqlashda zarur bo'ladi;
- nosix va mansux hadislarni bilishi. Agar bularni bilmasa, noto'g'ri hukm chiqarishi mumkin.

3. Mujtahid qiyos yo'llarini ham yaxshi bilishi kerak:

Usulul fiqh olimi, doktor Muhammad Hasan Hitu bunday deydi: "Kim arab tilini bilmasa, u tuya ignaning teshigidan o'tsagina mujtahid bo'la oladi". Mujtahid arab tili qoidalarini, ma'noyiy va bayon ilmlarini bilishi kerak. Chunki Qur'oni karim va hadislar

¹⁰ Imom Roziyning "Al-Mahsul" kitobi

arab tilidadir. Mazkurlar arab tili qoidalari, ya'ni sarf va nahv, balog'at yo'llari bilan fahmlanadi va bilinadi.¹¹

Ayrim olimlar mujtahid shariat maqsadlarini mukammal bilishini ham ijthod shartlari sirasiga kiritishgan. Chunki Qur'oni karim va sunnatni yaxshi tushunish va ularni voqelikka tatbiq etish shariat maqsadlarini bilishga bo'g'liqdir. Shunday ekan, kim bir hukmdan shar'iy dalil chiqarmoqchi bo'lsa, shariat sirlari va uning umumiy maqsadlarini bilishi vojibdir. Jumladan imom Shotibiy shunday deganlar: "Ummat shariatning asosiy mavzusi hayot uchun zarur bo'lgan besh narsani muhofaza qilish ekaniga ittifoq qildi. Ular: din, nafs, ya'ni jon, nasl, mol va aql".¹²

Ibn Obidiyin rohimahulloh esa "Tadviynul fiqh" kitobida: "Shariatning asosiy maqsadi dunyo va oxirat saodatidir. Ya'ni shariatning asosiy maqsadi insonni nafaqat oxirtda balki, bu dunyoda ham saodatli hayot kechirishini ta'minlashdir", deganlar. Qur'on va hadisdan hukm oluvchi mujtahidda shariat hukmlarini istinbot qilishda talab qilingan shartlar topilmasa, juda katta xatolar yuzaga keladi. Shunday ekan fatvo chiqarishda arab tilini bilish, hadislarni zohiriy ma'nolari bilan cheklanishda ham katta zararlar hosil bo'ladi. Natijada shariatning asosiy maqsadiga putur yetadi. Buning misolini mana bu hadisda ko'rishimiz mumkin.

"Biz, Ibn Abbasning shogirdlari Ato, Tovus va Ikrimalar bilan o'tirgan edik. Ibn Abbas namoz o'qiyotgan edi. Nohahon bir kishi kelib: "Fatvo beruvchilaringiz bormi?" dedi. Ikirma: "Savoling bo'lsa so'ra?" dedi. Kishi: "Har doim bavl qilganimda siyidik ketidan quyuq bir narsa keladi", dedi. Biz: "Bola bo'ladigan suyuqlikmi?" dedik. U: "Ha" dedi. Biz: "Senga g'usl vojib bo'ladi", dedik. Kishi javobni eshitib, orqasiga qarab ketdi. Ibn Abbas namozini tezlatib, salom bergach "Ey Ikirma, haligi kishini qaytarib olib kel", dedi. Uni olib keltirdi. So'ng Ibn Abbas bizga yuzlanib: "Bu kishiga Allohning kalomidan fatvo berdilaringmi?" dedi. Biz: "Yo'q", dedik. "Rasulullohning sunnatidanmi?" dedi. "Yo'q", dedik. "Sahobalarni so'zlaridanmi", dedi. Biz "yo'q", dedik. "Unda qayerdan fatvo berdingizlar?" Biz: "O'z fikrimizdan kelib chiqib", dedik. Ibn Abbas: "Shuning uchun Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Bitta faqih, shaytonga mingta obiddan ko'ra qattiqroqdir", deganlar", dedi. So'ng haligi kishiga yuzlanib: "Usha suv shahvat bilan keladimi?"- dedi. Kishi: "Yo'q", dedi. "Otilib chiqadimi?"- dedi. Kishi: "Yo'q" - dedi. Ibn Abbas: "Unda senga tahorat kifoya qiladi" - dedilar.¹³

Muhaqqiq ulamolar aytadilar: Mazkur rivoyatda muhaddislar savol beruvchining " kalimasiga e'tiborni qaratdilar va uning zohiriy ma'nosidan kelib chiqib, fatvo berdilar. Ushbu muhaddislarning hech biri faqih bo'lmaganlari uchun g'uslning illatiga e'tibor qaratmadilar va fatvo berishda xatoga yo'l qo'yidilar. Ibn Abbas roziyallohu anhumo esa, faqih bo'lganlari uchun bu joyda gapning zohiri bilan kifoyalannmasdan, hukmning, ya'ni g'uslning illati (erkaklik suvini shahvat bilan chiqishi)ga ham e'tibor berdilar. Illat

¹¹ "Nurul anvor" kitobi

¹² "Al-Muvofaqot" kitobi

¹³ "Kanzul ummol" Mujohid rivoyati

topilmagani uchun savol so'rovchiga g'usl vojib bo'lmasligi balki, tahorat kifoya qilishi va chiqqan suv maniy emas, vadiy ekanligiga fatvo berdilar.¹⁴

Shuningdek mazkur hadisdan yuqorida aytganimizdek fatvo berish uchun ba'zi ilmlar kifoya qilmasligi, balki mukammal darajada ilmga ega bo'lish zarur. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi ekanini ko'rishimiz mumkin. Ibn Abbos roziyallohu anhu Payg'ambarimiz alayhissalomning: "Bitta faqih shaytonga mingta obiddan yaxshiroqdir", degan so'zlarini eslab o'tishi esa, Qur'on va hadisdan hukm olish uchun faqih bo'lish kerakligi tushuniladi. Ibn Abbos roziyallohu anhu ana shunday faqih sahobalardan edi. Chunki, Payg'ambarimiz alayhissalom u zotning haqlariga: "Ey Alloh! Ibn Abbosni dinda faqih qilgin va unga ta'wilni o'rgatgin", deb duo qilgandilar. Qolaversa fiqh ilmi, faqihlarning maqomi to'g'risida Payg'ambarimiz alayhissalomdan bir qancha rivoyatlar bor. Jumladan, shunday deganlar: "Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqihqilib qo'yadi"¹⁵

Fiqh degan ulug' ne'matdan bebahra bo'lgan kishilar hadisning ma'nosini, haqiqatini va sir-asrorlarini anglashdan ojiz qoladilar. Natijada hadisning zohiriy ma'nolaridan hukm olib, o'zlari ham adashadilar va o'zgalarni ham adashtiradilar. Rofiza va xavorijlar kabi botil firqalar aynan ushbu so'zlarimizga misol bo'ladilar. Hazrati Ali roziyallohu anhu Nabiyo sollallohu alayhi vasallamdan so'radi:

"Ey Allohning Rasuli, agar menga bir masala ro'baro bo'lsayu men uning yechimini Allohning kitobdan ham Rasulining sunnatidan ham topolmasam unda qanday yo'l tutay? Payg'ambarimiz alayhissalom: "Faqih va obidlar bilan maslahatlashinglar, bu ishda xos bir fikrni joriy qilmang", dedilar.¹⁶

Qur'on va hadisdan hukm olishda faqihlarning gapiga yurilmas ekan xatoga yuz tutishimiz aniq. Zotan Sufyon ibn Uyayna aytganlaridek: "Hadis faqihlardan boshqani adashtiradi". Shuning uchun ham "Bemazhab"lar tarovehning rakatlarida, uch taloq masalasida xatoga yo'l qo'yadilar. Roshid xalifalarning sunnatlariga xilof qildilar. Salaf va xalaf bo'lgan jamhur ulamolarga itoat etmay adashdilar va adashtirdilar.

Islom dinida zo'ravonlik, ekstremizm va terrorizmning hech bir ko'rinishiga, ya'ni zulm qilish, qo'rqov solish, tinch aholini vahimaga tushirish, ularning moli va jonira tajovuz qilishga aslo yo'l qo'yilmaydi. Inson huquqlari, hayoti, dini, oilasi va molini himoya qilish ham islom ta'limotining asosini tashkil etadi. Payg'ambar alayhissalom shunday deydi: "Birontangiz, zinhor o'z birodariga qurol bilan ishora qilmasin (o'qtalmasin), chunki, u bilmaydiki, shayton uni qo'lini buzishi mumkin (ya'ni uning qalbiga vasvasa solish orqali musulmonga qarata o'q otirishi mumkin). Oqibatda esa u odam do'zax chohiga qulaydi". Bir insonning qoni, obro'si va moliga tajovuz qilish islom dinida harom qilingan. Bu haqida Rasululloh alayhissalomning vido hajida "Ey odamlar" deb boshlangan va butun bashariyatga qaratilgan quyidagi gaplari tasdiq bo'la oladi: "Albatta, sizlarning qonlaringiz, mollaringiz va obro'laringiz o'zlaringiz uchun huddi shu

¹⁴ "Taqlidush-shar'iy va ahamiyatuhu fil islam" kitobi

¹⁵ Imomi Buxoriy (71) va Imomi Muslim (1037)

¹⁶ Imom Tabaroniy rivoyatlari

kuningiz, shu oyingiz va shu shahringiz kabi hurmatlidir. Shu yerda hozir bo'lgan kishi hozir bo'lmaganlarga yetkazsin". Ushbu so'zlar bilan butun insoniyat o'zaro tinch-totuv yashashga, boshqalarga nisbatan adolat va shafqatli bo'lishga chaqiriladi. Zero, inson hayoti Yaratgan tomonidan berilgan buyuk ne'mat bo'lib, u tinchlik mavjud yerda qaror topadi. Lekin ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib, islom ta'limotining ayrim g'oya va tamoyillari mazmun-mohiyatini bir yoqlama, noto'g'ri talqin qilib, odamlarni to'g'ri yo'ldan adashtirishga urinmoqdalar. "Biz islohotchilarmiz" deya da'vo qilayotgan bunday oqimlar o'zlarining qarashlari va amaliyotiga qo'shilmaganlarni "adashtganlar"ga chiqarmoqda. Natijada musulmon bo'lmagan mamlakatlar aholisi o'rtasida islomni "yovuzlik saltanati" va tahdid manbai sifatida qabul qilinishiga, "islamofobiya" ("islomdan qo'rqish", "dahshatga tushish")ning turli ko'rinishlari paydo bo'lishiga ham zamin yaratmoqda. Bunday yondashuv va talqinlar jamiyatdagi ijtimoiy birlikka tahdid solishi, ichki parokandalikni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash qiyin emas.

"Osonlashtiring, qiyinlashtirmang! Qiziqting, bezdirmang!"

Diniy ekstremistik oqimlar o'zlarining manfur niyatlari va amaliyotlarini o'qlash maqsadida islom nomi bilan turli "fatvolar" bermoqda. Bunday harakatlar islom ulamolarining ko'rsatmalarini inkor qilishdan tap tortmaydigan, diniy birlik, aqidaviy yakdillikka real tahdid tug'diruvchi guruhlar uchun g'oyaviy zamin yaratmoqda. Allohning buzg'unchilikni sevmasligi, bunday harakatlar islom dini ta'limotiga mutlaqo zid ekani Qur'on oyatlari, hadislar, ulamalar fikrlarida keltirilgan.

"Ularga: "Er yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmang!" - deyilsa, ular: "Albatta, biz chin islohcilarimiz", - deyishadi. Ogoh bo'lingki, aynan ularning o'zlari buzg'unchilardir, lekin (buni o'zlari) sezmaydilar". Hadislarda ham "Sendan maslahat so'ragan kishiga to'g'ri (yo'l) ko'rsat, aks holda, unga xiyonat qilgang bo'lasan" hamda "Yaxshilikka undovchi odam, yaxshilik qilgan kabidir"¹⁷

Shuningdek, Imom G'azzoliy aytadilar: "Diniy mutaassiblar dindan foydalanmagan holda kishilarga hujum qiladigan katta yo'ldagi qaroqchilardir". Ya'ni ularning o'zlari turli ixtiloflar va buzg'unchiliklar qilib, musulmonlar o'rtasidagi birlik va yaqdillikka, jamiyat taraqqiyotiga zarar yetkazmoqdalar. Voqelik shuni ko'rsatmoqdaki, yer yuzining turli nuqtalarida davlatga qarshi targ'ibot olib borish, jamiyat asoslarini, mamlakatdagi tinchlik va tartibni, mavjud tuzum va boshqaruv tizimini izdan chiqarmoqda ham islom dini g'oyalarini g'arazli talqin etish usulidan faol foydalanilmoqda. Jaholat, haddan oshish va g'uluvga ketish, firqa va hizblarga bo'linish, fitna va xiyonat ham zamonaviy ekstremizmning asl qiyofasini namoyish etuvchi xususiyatlardan hisoblanadi. Qasam ichirib, unga qat'iy rioya qilishni talab etish, zulm va zo'ravonlik, ma'naviy-ruhiy bosim va tazyiq o'tkazish bilan inson irodasini sindirish va berilgan ko'rsatmani so'zsiz ijro etishga tayyor manqurtga aylantirish uslublari va texnologiyalarini takomillashtirib borayotgani esa mutaassib kuchlarning o'z niyatlari yo'lida har qanday razil ishlardan tap

¹⁷ "Baqara" surasi 11-12 oyatlar

tortmasligidan dalolat beradi. Ushbu bo‘limda ekstremistlar o‘zlariga bayroq qilib olgan ba’zi g‘oya va tamoyillar tizimli tahlil qilib, ularning islom ta’limoti asoslariga mutlaqo ziddligi birlamchi manbalar - Qur’oni karim oyatlari, hadislar, mashhur ulamolarning fikrlari hamda boshqa manbalarga tayanib ochib beriladi. Avvalo, iymon inson qalbi bilan bog‘liq bo‘lib, u ixtiyoriylik asosida qabul qilinishi lozim. Islomning birinchi arkoni hisoblangan imonni majburan, kuch bilan singdirib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, inson iymonni qalban tasdiq etganini, ya’ni iymonli ekanini bilish ilmi faqat Allohga xos. Bu borada bir insonning boshqalarni iymonsiz, ya’ni kofir deb hukm chiqarishi qattiq qaytarilgan amallardandir. Shunga qaramay, zamonaviy soxta salafiylar takfir masalasida haddan oshib, har qanday gunoh sodir etgan musulmonni kofirlikda ayblashdan tortinmaydilar. Ma’lumki, "kufir" so‘zi "berkitmoq", "yashirmoq" degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, "kufir"ning "kofir bo‘lmoq", "dinsiz bo‘lmoq" kabi ma’nolari bo‘lib, u iymonning aksi hisoblanadi. Qalbida umuman iymoni bo‘lmagan shaxs esa "kofir" deyiladi. Imom G‘azzoliy "kufir"ga ta’rif berib: "Rasululloh alayhissalom olib kelgan narsani yolg‘onga chiqarishdir", deganlar.

"Biror mo’minni kofirlikda ayblagan kishi uni o‘ldirgandek (gunohga muhtalo) bo‘ladi".

Qalbida iymoni bor odamni kufirda ayblash va uning qonini to‘kishni halol sanash mu’tabar manbalarda qat’iy dalillar asosida taqiqlangan. Jumladan, Qur’oni karimda: "Ey iymon keltirganlar! Alloh yo‘lida safarga chiqqaningizda, aniq ish tuting! Sizlarga salom bergan (yoki taslim bo‘lgan) kishiga bu dunyo matohini (o‘ljani) kuzlab: "Mo’min emassan", - demang!..."¹⁸ deyiladi. Bu oyat tafsirida mufassirlar "Sizlar musulmonligini bildirgan kishiga mo’min emassan, deb adovat qilmang" deganlar. Kimki, musulmon ekanini til bilan aytib tursa, shunning o‘zi musulmonchiligiga kifoya qiladi. Bu haqida Usoma ibn Zayd (r.a.) dan rivoyat qilingan hadis ham kuchli dalil bo‘lib xizmat qiladi: "Rasululloh alayhissalom bizlarni Juhaynadan bir qabilaga yubordilar. Biz ularni suvlarigacha quvib bordik. Men va ansorlardan bir kishi ulardan bir kishini quvib yetib, qurshab olganimizda "La ilaha illalloh", dedi. Ansoriy undan qo‘lini tortdi. Men esa, uni nayzam bilan yaralab o‘ldirdim. Madinaga kelib, bu xabar Nabi sollallohu alayhi vasallamga yetganida, menga "Ey Usoma, sen uni "La ilaha illalloh", deganidan so‘ng o‘ldirdingmi?" dedilar. Men: "Ey Rasululloh, bu uni o‘zini saqlash uchun aytdi", dedim. Ular: "Uni "La ilaha illalloh", deganidan so‘ng o‘ldirdingmi?" deb takrorlayverdilar. Hatto men (pushaymon bo‘lib) o‘sha kungacha musulmon bo‘lmagan bo‘lsaydim, dedim!"¹⁹.

Bundan tashqari agar bir musulmon kishi ikkinchi musulmonni kufirda ayblasa, uning iymoniga putur yetishi haqida qat’iy ogohlantirilgan. Jumladan, Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisi sharifda: "Kishi boshqa bir musulmonni kofir yoki fosiq desa,

¹⁸ "Niso" surasi 94-oyat

¹⁹ Imomi Buxoriy (6509)

agar shu narsalar unda topilmasa, aytgan insonning o‘zi kofir yoki fosiq bo‘ladi”²⁰, deyilgan. Hadis mazmunidan ko‘rinib turibdiki, mo‘min insonni kufirda ayblash ayblovcining iymonini darz ketishiga olib keladi. Shu boisdan ham iymon tushunchasini yoritgan yetuk ulamolarimiz masalaga o‘ta ehtiyotkorlik bilan yondashib, iymon masalasidagi har qanday tortishuv va dahanaki nizolardan o‘zlarini chetda saqlashga harakat qilganlar. Bugungi kunda esa o‘zlariga "olimlik" nisbatini beruvchi ayrim ekstremistik oqim vakillari, jumladan, soxta salafiyalar tomonidan bu kabi tushunchalarni noto‘g‘ri talqin etish natijasida musulmon jamiyatlarida turli ixtilof va nizolar kelib chiqayotgani, sir emas. Ular kishilar xatti-harakati va din arkonlarini bajarish chog‘ida kuzatilishi mumkin bo‘lgan juz‘iy kamchiliklar tufayli musulmonlarni “islom dinidan chiqqan”, “murtad”, “kofir” kabi yuki og‘ir gunohlar bilan ayblamoqdalar. Vaholanki, Payg‘ambar alayhissalomdan bizgacha yetib kelgan bir qancha sahih hadislarda insonning gunohi sababli dindan chiqmasligi qattiq ta’kidlangan. Jumladan, Imom Abu Dovuddan rivoyat qilingan hadisda Muhammad alayhissalom: “Uch narsa iymonning aslidir: “La ilaah illalloh” degan kimsaga tegmaslik, gunohi tufayli uni kufirda ayblamaslik, amali tufayli uni islomdan chiqarmaslik”²¹, degan edilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, inson gunoh ish sodir etib, fosiq bo‘lishi mumkin, lekin musulmonchilikdan chiqmaydi. Bu haqida hanafiy mazhabi asoschisi, buyuk Imom Abu Hanifa ham: “Biror musulmonni qilgan gunohi tufayli kofirga chiqarmaymiz, garchi u gunohi kabira bo‘lsa ham. Basharti uni halol deb e’tiqod qilmagan bo‘lsa, undan iymon ismini ham olib tashlamaymiz, uni haqiqiy mo‘min deb atayveramiz. Uni fosiq mo‘min deb atash mumkin, faqat kofir deb emas”²², degan edilar.

Moturidiylik aqidasi ko‘ra, gunohi ko‘p kishi ham gunohi kam kishi ham iymon sohibi ekanligi Qur‘on va sunna asosida ishlab chiqilgan muhim e’tiqodiy masaladir. Demak, bir inson zohirida “La ilaaha illalloh” degan kalimayi shahodatni aytib, o‘zini musulmon ekanini izhor qilsa, uning gunohi va qilayotgan amalidan qat’i nazar u musulmon sanaladi. Chunki iymon qalbgga oiddir. Qalb ichidagini bilish imkon faqat Allohga xosdir. Musulmonlarni kufirda ayblash musulmon jamiyatlarida bugun paydo bo‘lgan holat emas. Bunday ayanchli amaliyot hazrati Ali (r.a.) xalifalik davrlarining so‘ngida yuzaga kelgan xorijiyalar faoliyatida avjiga chiqqan edi. Bu toifa vakillari insonlar o‘rtasida fitna kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi turli savollar bilan musulmonlarga murojaat etar, o‘zlari uchun maqbul javobni bermaganlarni “kofir” deya e’lon qilishardi. Shuningdek, ular gunoh sodir etgan yoki diniy amallarni bajarishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan musulmonni kufirda ayblab, uni o‘ldirishni muboh sanashgan edi. Xavorij yoki xorijiy nomi ayni shu buzg‘unchi oqimga nisbatan aytilsada, ko‘plab din ulamolari ilmi oz bo‘lsada, bugungi kunda o‘zini dono sanab, o‘zidan boshqa musulmonning iymoniga shubha bilan qaraydigan ayrim toifalarni ham “zamonamiz xorijiyalari”, deb atamoqdalar. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham kelajakda

²⁰ Imomi Buxoriy (71)

²¹ Imomi Abu Dovud (2213)

²² Imomi Azam "Al-Fiqh al-akbar"

bo'ladigan bunday qabihlikni ilohiy bashorat asosida anglab yetgan holda musulmonlarni bu kabi ishlardan qaytargan edilar. Jumladan, Imom Termiziy Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.)dan rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: "Muhammad alayhissalom:

"Oxir zamonda bir qavm chiqadi. Ularning yoshlari kichik, aqlari past. Qur'onni qiroat qilurlar. U (Qur'on qiroati) ularning bo'g'zidan nariga o'tmas. Ular odamlarning eng yaxshi gaplarini so'zlaydilar. Dindan huddi kamondan o'q chiqqandek chiqarlar"²³, dedilar.

Shu mazmundagi yana bir hadisda aytilishicha, Ali ibn Abu Tolib Yamandan Rasululloh alayhissalomga bir bo'lak tilla yubordi. Muhammad alayhissalom uni Uyayna ibn Badr, Aqra' ibn Hobis, Zayd Xoyl va Alqama ibn Ulosaga taqsimlab berdilar. Shunda bir kishi bunday taqsimotdan norozi bo'lib: "Ey Rasululloh, Allohdan qo'rqing", deb yubordi. U zot: "Sho'ring qurigur, men yer yuzi ahlining Allohdan qo'rqishga eng haqlirogi emasmanmi?!" - dedilar. Haligi odam orqasiga burilib ketdi. Shunda Xolid ibn Valid Rasulullohdan uni jazolashga izn so'ragan edi, Rasululloh: "Yo'q, balki u namoz o'qir", dedilar. Xolid ibn Valid dedi: "Qanchadan qancha namoz o'qiydigan odamlar borki, tili bilan qalbida bo'lmagan narsani so'zlaydi". Shunda Rasululloh alayhissalom: "Men odamlarning qalblarini teshib ko'rishga va qorinlarini yorib ko'rishga buyurilmaganman"²⁴, dedilar.

Bu hadisi sharifda ham imon qalbgaga bog'liq amal ekani, shuningdek insonning qilayotgan ishi og'ir gunoh bo'lsada, u insonning kufriga dalolat qilmasligi ko'rinib turibdi. Agar mo'minning gunohi tufayli dindan chiqishi hukm qilinganida edi, Allohning payg'ambarini "adolatsiz" deb gumon qilgan kishi eng avvalgilardan bo'lib, kufrda ayblangan bo'lardi. Vaholanki, Payg'ambar alayhissalom u kishini "kofir bo'ldi" demadilar, balki "Men odamlarning qalblarini teshib ko'rishga va qorinlarini yorib ko'rishga buyurilmaganman", deb ummatlarga imon qalbgaga bog'liq va daxlsiz ekanini ta'lim berdilar. Bundan tashqari, musulmonni kufrda ayblash og'ir gunoh ekani, hatto bu ish uni o'ldirishga teng ma'siyat amallardan bo'lishini "Biror mo'minni kofirlikda ayblagan kishi uni o'ldirgandek (gunohga muhtalo) bo'ladi"²⁵ degan hadis mazmunidan ham bilib olish mumkin. Ammo shu bilan birga, ko'plab oyat va hadislarda inson biror amalni qilgan yoki qilmaganligi uchun kofir bo'lib qolishidan ogohlantiriladi. Jumladan, "...Alloh nozil qilgan narsa (oyatlar) bilan hukm qilmaganlar - ana o'shalar kofirlardir"²⁶. Bu oyat xususida buyuk sahobiy Ibn Abbos (r.a.)dan naql qilinadiki, Allohning hukmlaridan birortasini inkor etmay iqrar va tasdiq etgan holda ularga muvofiq hukm qilmasa, kofir bo'lmaydi, balki gunohkor bo'ladi. Bundan tashqari, Payg'ambarimiz alayhissalomdan ham zohiran qaraganda ba'zi amallarni qilish kufrga sabab bo'lishi haqida bir qancha hadislar yetib kelgan, Jumladan, Muhammad alayhissalom aytadilar:

²³ Imomi Termiziy (2208)

²⁴ Imomi Muslim (1839)

²⁵ Imomi Buxoriy (5776)

²⁶ "Moida" surasi 44-oyat

“Biz bilan u (munofiq)lar o‘rtasidagi ahd namozdir. Kim uni tark qilsa kofir bo‘libdi”²⁷.

Yana bir hadisda esa, Rasululloh alayhissalom: “Alloh taolo bandalarga besh vaqt namozni farz qildi. Ularni ado etgan va zoye qilmagan kishi uchun Allohning huzurida uni jannatga kiritish ahdi bordir. Ularni ado etmagan kishilar uchun Allohning huzurida ahd yo‘qdir. Alloh xohlasa ularni jazolaydi, xohlasa jannatiga kiritadi”²⁸.

Dastlabki hadisda kelganidek, namozni tark etish dindand chiqaruvchi kufr bo‘lganida, ikkinchi hadisda Alloh xohlasa, namozni zoye qilgan insonni ham jannatga kiritishi mumkinligi haqida-gi xabar kelmagan bo‘lardi. Yoki bo‘lmasa Muhammad alayhissalom: “Musulmonni so‘kish fosiqlik, u bilan urushish kufrdir”²⁹, deya musulmonlarni o‘zaro urushsalar kofir bo‘lib qolishdan ogohlantirganlar. Hadisning zohiriy ma’nosidan o‘zaro janjallashgan, urushgan ikki musulmon dindand chiqib qolishini anglash qiyin emas. Ammo Qur’oni karimda Alloh taolo: “Agar mo‘minlardan ikki toifa o‘zaro urushib qolsalar, darhol ular o‘rtasini isloh etingiz!... Albatta, mo‘minlar (dinda) o‘zaro birodardirlar. Bas, sizlar ikki birodaringiz o‘rtasini tuzatib qo‘yingiz va Allohdan qo‘rqingiz, shoyad, rahm qilinsangiz”³⁰, deb o‘zaro urushgan ikki musulmonlarni “kofir” deb emas, “mo‘min” deb atamoqda. Bunga o‘xshash yana ko‘plab hadislar sahih to‘plamlardan o‘rin olgan. Jumladan, “Kim folbinga yoki kohinga borsa va uning aytgan gapini tasdiqlasa, shubhasiz, Muhammadga tushgan narsaga kofir bo‘libdi”³¹, “Kim Allohdan o‘zga ila qasam ichsa, batahqiq kofir bo‘libdi”³², “Mendan keyin bir-biringizning boshingizni oladigan kofir bo‘lib ketmangiz!”³³. Bu kabi hadislarini o‘rgangan muhaddis olimlar ulardagi “kofir bo‘libdi”, “bizdan emas” singari so‘zlarda zajr, ya’ni qo‘rqitish ma’nosi borligi, hadisda qaytarilgan amalni qilgan inson musulmonchilikdan chiqmasligi, balki og‘ir gunohkor bo‘lishini ta’kidlaganlar. O‘rta Osiyolik mashhur faqih va mutakallim Abul Yusr Pazdaviy (1030-1099) yuqoridagi kabi hadislarini tahlil qilib, shunday xulosa beradi, ya’ni kufrga nisbatan berishga dalolat qiladigan hadislardan o‘sha ishni qilib, tavba qilmasa, shu holatda Allohning azobidan omonda bo‘lmaydi, deb tushuniladi. Chunki boshqa hadislarida gunohi kabira qilgan mo‘min musulmon baribir jannatga dohil bo‘lishi zikr etilgan, ya’ni uning hukmi Allohga havola, xohlasa kechiradi, xohlasa gunohiga yarasha jazo berib, so‘ng jannatga kiritadi. Imom Buxoriy va Muslim tomonlaridan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh alayhissalom: "Kimki, ixlos bilan La ilaaha illalloh desa jannatga kiradi", deb marhamat qildilar. Mashhur sahobiy Abu Zar G‘iforiy 3 marta "Zino qilsa ham, o‘g‘rilik qilsa hammi?", deb so‘rayverdi. Shunda Rasululloh alayhissalom: "Zino qilsa ham, o‘g‘rilik

²⁷ Imomi Ahmad (22492)

²⁸ Imomi Ibn Moja (1404)

²⁹ Imomi Buxoriy (48) va Imomi Muslim (126)

³⁰ "Hujurot" surasi 9-10- oyatlar

³¹ Imomi Ahmad (9378)

³² Imomi Ahmad (5917)

³³ Imomi Buxoriy (120)

qilsa ham, garchi bu Abu Zarga yoqmasa ham", dedilar.³⁴ Ammo "Zinokor zino qilayotganda mo'min bo'lmaydi", degan hadis ushbu yuqoridagi hadis bilan birgalikda o'rganiladi hamda "biror gunoh uchun mo'min bo'lmaydi" deganda, haqiqatda dindan chiqqan deb hisoblanmaydi. Bunga yana bir dalil sifatida faqihlar tomonidan mo'minlarni biror gunohlari tufayli dindan chiqqan deb, belgilanganini zikr etish o'rinli. Balki dindan chiqqan kishi o'zi aniq tarzda e'tirof etishi lozim bo'lgan hamda pand-nasihatlarni uzoq muddat davomida qabul qilmagandan keyingina musulmonchilikdan chiqqan deb hisoblangan. Ya'ni o'zi iqror bo'lishi shart bo'lgan. Bu borada hadisda kelgan (mo'min) so'zini mashhur faqih Abul Yusr Pazdaviy oxiratda Alloh mag'firat etmasa, azobdan omonda bo'lmaydi, kutulmaydi, deb sharhlaydi. Ya'ni inson tavba qilib bu kabi gunoh ishlarni zino qilmasligi zarurligini ta'kidlaydi. Yana bir movarounnahrik ulamo Abu Shakur Solimiy Keshi (XI asr) esa: "Kimki namozni qasdan tark etsa, kofir bo'libdi" hadisidan Allohga kofir bo'lishni emas, balki kufroni ne'mat, ya'ni "noshukurlik qilibdi" ma'nosi irod qilingan. Buning misoli Sulaymon alayhissalom qissasida zikr qilingan, ya'ni "...Bas, uning (taxtning) o'z huzurida turganni ko'rgach, dedi: "Bu Rabbimning shukur qilamanmi yoki noshukurlik qilamanmi, imtihon qilish uchun bergan fazlidandir..."³⁵. Shu o'rinda "noshukurlik qilamanmi" so'zi Qur'onda "kufir keltiramanmi", "inkor etamanmi" tarzida kelganini ta'kidlash o'rinli. Payg'ambarlardan kufir bo'lishini aql bovar qilmaydi. Bundan yuqoridagi hadisidagi "kofir bo'libdi" kalimasidan kufroni ne'mat, ya'ni noshukurlik ma'nosi irod qilinganligi ma'lum bo'ladi" - deb ta'kidlaydi. Aqida ulamolari shunga o'xshash e'tiqodiy qoidalardan kelib chiqqan holda kufri e'tiqodiy kufir va amaliy kufir, deb ikkiga ajratadilar. Bunga sabab yuqoridagi kabi oyat va hadislarda qaysidir amalni bajarish yoki bajarmaslik oqibatida musulmonchilikdan chiqib qolish bilan qo'rqitilgan o'rinlarning barchasida ham musulmon odam chin ma'nodagi kofir bo'lib qolavermaydi. Agar shariatda musulmon odam katta gunoh qilgani uchun aniq kofir bo'lishi belgilanganida edi, o'sha gunohkor banda dinidan qaytgan (murtad) kishi uchun belgilangan jazo tayin qilinishi zarur bo'lardi. Jumladan, hotini bilan nikohi buziladi, merosdan mahrum bo'ladi, agar u vafot etsa, janoza o'qilmaydi, musulmonlar qabristoniga qo'yilmaydi va boshqa choralarda nazarda tutilgan. Shu munosabat bilan yuqoridagi hadislarni tushunishda boshqa hadislaridan ham foydalaniladi. Dindan qaytganlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, shuni alohida qayd etish lozimki, Payg'ambar alayhissalom hayotlik chog'larida ularni jazolaganlari haqida ma'lumotlar kelmagan. Vaholanki, U zot kim munofiq, kim murtad ekanini aniq bilganlar. Bir necha odam o'zlarining oldida dindan qaytganlarini e'lon qilgan. Lekin shunda ham ularga chora ko'rmaganlar. O'z davrining yetuk ulamosi Ibn Nujaym al-Hanafiy al-Misriy (vaf. 970/1563 y.) aqidaviy va fiqhiy masalalarni atroflicha o'rganib, "Agar bir masalada kofir deyish uchun to'qson to'qqizta dalil bo'lsayu, kofir demaslik uchun bitta dalil bo'lsa, to'qson to'qqizni qo'yib, o'sha bitta dalilni olish kerak.

³⁴ Imomi Buxoriy (5379) va Imom Muslim (138)

³⁵ "Naml" surasi 40-oyat

Ammo dinda haddan oshib, g'uluvga ketganlarni bu masalada "mo'min deyish uchun to'qson to'qqizta dalil bo'lsa-yu, kofir deyishlik uchun bitta dalil bo'lsa, to'qson to'qqizni qo'yib, o'sha bitta dalilni olish kerak", deyishga borib etdilar. Bu esa, barcha islomiy mazhablar va ulamolarning tutgan yo'liga teskari", deydi. Agar inson amaliy kufr emas, e'tiqodiy kufrga ketganida ham uni dindan chiqqanligini aniqlashtirishning o'ziga xos qoidalari o'rnatilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, biror kimsa kufrga dalolat qiluvchi xatti-harakatni amalga oshirsa, u albatta, guvohlar ishtirokida qoziga olib borilgan va undan qilgan ishi, aytgan gaplari haqida so'ralgan. Mabodo, so'roq qilinuvchi aytgan gapidan tona, kofirlikiga o'z so'zi bilan iqror bo'lmasa, unga nisbatan jazo belgilanmagan va bu uning tavbasi hisobida qabul qilingan. Agar kufrda gumonlanayotgan kimsa biror oyatni noto'g'ri ta'vil qilgan yoki bilmasdan kufrga olib boruvchi so'z aytgan yoki xatti-harakat sodir etgan bo'lsa, u holda unga bu haqida tushuntirilgan va hushyor bo'lishga chaqirilgan. Agar ayblanuvchi qilgan ishining mohiyatini to'liq anglab etgan holda bajargan bo'lsa va murtad bo'lganini qozi huzurida o'zi ham tan olsa, uni tavba qilishga da'vat qilingan. Bu holatlar kishi imondan chiqqaniga ochiq dalolat qiluvchi alomatlar kuzatilganda bajariladigan amallardir. Lekin mo'min ekanini ochiqdan-ochiq ta'kidlab, musulmonchiligini izhor qilib turgan insonni kufrda ayblash esa, musulmonchilikka to'g'ri kelmaydigan o'ta qabiha amallardandir. Shunday ekan, har bir inson gapirayotgan har qanday so'ziga ogoh bo'lmo'g'i, o'ylamay-netmay o'zgalarning kofirga chiqarib yuborishdan tiyilishi, qolaversa, bu bilan o'z imonini saqlamo'g'i lozim. "Hijrat" - ("bir joydan ikkinchi joyga ko'chish", "tark qilish"). Istilohda esa, Rasululloh alayhissalom davrlaridagi musulmonlarning Habashistonga, keyinchalik Rasululloh alayhissalom o'zlari boshchiligida Madinaga ko'chib o'tishlariga aytiladi. Payg'ambar Muhammad alayhissalom Makka shahrida o'zlarining chiroyli xulqlari va go'zal muomalalari bilan atrofdagi kishilarning islom diniga qiziqishiga sabab bo'lgan edilar. Bu esa, o'z navbatida musulmonlarning soni kun sayin ortib borishga turtki bo'ldi. Bundan tashvishga tushgan Makka mushriklari Rasululloh alayhissalomga suiqasd uyushtirib, u kishini qatl qilish rejasini tuzadilar. Biroq Alloh taolo o'z Rasulini fitnadan ogoh qilib, Madinaga hijrat qilish to'g'risida vahiy yuboradi. Ulamolar hijrat to'g'risida nozil bo'lgan oyat va hadislarni o'rganib, uni ikki qismga ajratadilar. Birinchisi, yuqorida ta'kidlangan "ko'chish" ma'nosidagi hijrat bo'lib, bu borada Qur'oni karimning "Niso" (97 va 100-oyatlar), "Anfol" (74-oyat), "Nahl" (41 va 110-oyatlar) suralarida bayon qilingan. Mazkur manbalarda islomga nisbatan qarshi turgan makkaliklar tomonidan musulmonlarni turli ko'rinishda azoblash hamda ularni o'z tanlagan e'tiqodlaridan voz kechirish maqsadida jismoniy va boshqa ko'rinishlardagi zo'rliklar ishlatilgani bayon qilinib, dinlari va hayotlarini saqlash maqsadida tinch va osoyishta joyga ko'chish buyurilgani ta'kidlanadi. Ikkinchisi, inson gunohlardan o'zini tiyishi va ularni tark qilishi tushuniladi. Bu borada rivoyat qilingan quyidagi hadis sharifda: Ummu Anas (r.a.) Rasululloh alayhissalomdan nasihat qilishni so'raydilar. Shunda, Rasululloh alayhissalom: "Gunohlardan tiyilgin, o'sha hijratning eng

kattasidir. Farzlarga rioya qilgin, o'sha jihodning eng afzalidir. Zikrni ko'paytirgin, Qiyomat kuni Alloh taoloning huzuriga borganingda unga eng mahbub amal shu bo'ladi", deyilgan. Lekin islom dini aqidasi buzib, g'araz maqsadlarni ko'zlayotgan kimsalar "hijrat qilmaganlar kofir, konstitutsion tuzumlar o'rnatilgan yurtlarda yashamoqlik kufr" degan soxta da'vo bilan vatandoshlarmizni aldab, xorijdagi jangarilar tayyorlanadigan markazlarga jo'natishga harakat qilmoqda. Vaholanki, ona yurtini tashlab, o'zga ellarda sarson-sargardon yurish, o'zi kabi manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan yurtiga qarshi qurol ko'tarish islom ta'limotiga umuman ziddir. "Jihod" - (arab. "g'ayrat qilish", "kuchni ishga solish") so'zi "jiddu-jahd", ya'ni inson o'z maqsadiga erishish yo'lida bor imkoniyatlarini ishga solib, harakat qilishini anglatadi. Istilo'da esa, ushbu so'z bir qancha ma'nolarda ishlatiladi. Jumladan, "jihod" - Allohning yo'lga da'vat qilish, yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish, Alloh yo'lida insonning o'z havoyi-nafsi ga qarshi kurashi, ota-onaga xizmat qilishi va yovga qarshi kurashishdek turlari mavjud. Bunga dalil sifatida Imom Termiziydan rivoyat qilingan quyidagi hadisi sharifda "Jihodning afzali Alloh taoloning roziligini deb inson o'z havo nafsigacha qarshi jihod qilishidir". deyilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan: "Bir kishi Rasululloh alayhissalomga: "Men jihodda qatnashmoqchiman", dedi. U zot: "Ota-ongang bormi?"deb so'radilar. "Ha", deb javob berdi u kishi. Shunda Payg'ambar alayhissalom: "Ularning huzuriga borib, yordam ber, xizmatini qil! Shuning jihodidir", dedilar". Shundan kelib chiqqan holda, musulmon ulamolar farzandning ota-onaga qilgan xizmati ham jihod bo'lishini ta'kidlaganlar. Rasululloh alayhissalom Makkadan Madinaga hijrat qilgandan so'ng, Madinada musulmonlar uchun oldin bo'lmagan narsa, ya'ni davlat yuzaga keldi. Payg'ambar Muhammad alayhissalom islomning ilk - Makka davrida yuqorida keltirilgan, jang ma'nosi bo'lmagan jihodni olib bordilar. Chunki, u kishi mushriklar yetkazgan azob va uqubatlarga sabr qilish hamda ular bilan faqat Qur'on asosida bahs yuritish, to'g'ri yo'lga da'vat qilishga buyurilgan edilar. Musulmonlar Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng, Alloh taolo musulmonlarga mushriklardan o'zlarini mudofaa qilishga ruxsat berdi. Bu borada, Qur'oni karimda: "(Mushriklar tomonidan) hujumga uchrayotgan (musulmon)larga, mazlum bo'lganlari sababli (jang qilishga) izn berildi. Albatta, Alloh ularga yordam berishga qodirdir"³⁶, deb ta'kidlanadi. Shu asnoda, hijratning ikkinchi yili Vatan, din mudofaasi mazmunidagi jihodga izn berildi. Islom tarixini chuqur o'rgangan mutaxassis olimlar, tarixda yuz bergan har qanday jihod, faqatgina, mudofaa maqsadida olib borilganini ta'kidlaydilar. Xususan, suriyalik mashhur ulamo Ramazon Butiy: "Musulmonlar tomonidan olib borilgan jihod yov bostirib kelganda himoya maqsadida yoki dushman tarafdin hujum xavfi paydo bo'lganda unga qarshi borish uchungina yuz berganini ko'rish mumkin", deb ta'kidlagan. Lekin, bugungi kunda g'arazli maqsadlarni ko'zlab, olib borilayotgan urushlarni "jihod" deb atalayotgani mutlaqo asossizdir. "U ikkisi (ya'ni ota-ona) borasida (xizmatlarini qilib) jihod qilgin". Hadisdan Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mudofaa

³⁶ "Haj surasi" 39-oyat

ma'nosidagi jihod xalqaro shartnomalar va davlatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlar bo'lmagan bir holatda yuz bergan. Bugun esa, bularning barchasi o'zgaridi. Deyarli barcha davlatlar xalqaro tashkilotlar a'zolari bo'lib, turli hamkorlik shartnomalari, bitim va protokollarga imzo qo'yanlar. Shunday ekan, butun dunyo davlatlari islom ta'limotlariga ko'ra "muohad", ya'ni "ahd qilingan" toifasiga kiradi. Rasululloh alayhissalom bir hadislarida shunday dedilar: "Kim muohadni o'ldirsa, jannatning hidini hidlamaydi. Jannatning hidi qirq yillik masofadan taralib turadi"³⁷.

Shunday ekan, islom jannatga kirishga hamda do'zaxdan uzoqlashishga sabab bo'luvchi Alloh taoloning zikri, insonlarga yaxshilik qilish, yeryuzi da osuda hayot kechirish kabi jihodga, ya'ni sa'y harakat qilishga chaqiradi. Zero, islom ta'limotiga ko'ra, asl jihod - Alloh taolaga yaqinlashtiruvchi solih amallarni o'z ichiga oladi. Binobarin halol tijorat, ishlab chiqarish yoki quduq qazib, suv chiqarish kabi ishlar ham shular jumlasidandir. Demak, tinchlikka rahna solish, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligiga ziyon yetkazish, fitna qo'zg'atish, toifalarga bo'linib, o'zaro nizolashish umuman islom diniga yot holat hisoblanadi. Islom niqobi ostida olib borilayotgan har qanday buzg'unchi mafkuradan kelajak avlodlarni, qolaversa, dunyo hamjamiyatini faqatgina ilm-ma'rifat va ogohlikka da'vat orqali saqlab qolish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kunda eng zamonaviy texnologiyalardan va kishilar uchun muqaddas hisoblangan tuyg'ulardan faolfoydalangan holda inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan kurash o'ta nozik tus va xatarli ko'lam kasb etmoqda. Turli mutaassib kuchlarning islom dini asoslarini, Qur'on oyatlari va hadislarining asl mohiyatini buzib tahlil qilishi, jamiyat hayotiga tahdid soladigan ishlarni islom bilan bog'lashga urinayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xulosa.

Islom dini har tomonlama pokiza, ezgulikka chorlovchi, bashariyat qalbida asrlar osha o'z o'rniga ega bo'lib, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni bezavol saqlashda omil bo'lgan dindir. Uning asoslari, hukmlari va manbalari ilohiy chashmadan sug'orilgan. Inson dinsiz yashay olmaydi. Dinsiz hayotning qanday og'ir oqibatlariga olib kelishini esa g'arb jamiyatidagi ma'naviy tubanlik yaqqol ko'rsatib turibdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bugungi kunda butun dunyoda Islom diniga qiziqish tobora ortib bormoqda. Buning asosiy sababi sifatida uning insonparvarligi, haqqoniyligi, bag'rikengligini ko'rsatish mumkin. Ming afsuski, bu haqiqatni anglamaydigan, o'rni kelsa, anglashni ham istamaydigan, be'gubor dinning hukmlari va atamalarini noto'g'ri talqin qilayotganlar ham oramizda yo'q emas. Bunday harakatlar zamirida esa shaxsiy manfaat, manqurtlik, o'zboshimchalik hamda g'arazli maqsadlar borligi aniq. Ishonch bilan aytamizki, ular bu soxta g'oyalari ortidan mo'may pul orttirishni, o'zgalarni o'ziga rom etishni maqsad qilishgan. Afsuski, ular Islom dinini niqob qilib, manfur ishlarini amalga oshirishda davom etishyapti, hali ongi to'liq shakllanib ulgurmagani yosh avlodni tuzoqqa ilintirish payida ertayu kech tinimsiz

³⁷ Imom Buxoriy rivoyati

harakat qilishyapti. Ma'lumki, Qur'oni karim oyatlari va hadis shariflar zamirida teran ma'nolar mujassam. Buni faqat arab tilidan to'liq xabardor bo'lganlargina tushunadi. Oyat va hadislariga noto'g'ri ma'no berish, mazmunini o'z fikri bilan izohlash, botiniga emas, faqat zohiriga qarab xulosa chiqarish, diniy atamalarni noto'g'ri talqin qilish oqibatida ko'p ixtiloflar, ziddiyatlar va nizolar kelib chiqmoqda. Shuning uchun xalqimizda "Chum-chuq soysa ham, qassob so'ysin" degan ajoyib maqol bor. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tushunchaning asl mazmunini buzib talqin qilish u aks ettirayotgan voqelikni to'g'ri anglash imkonini yo'qqa chiqaradi. Bunday ish ataylab, g'arazli maqsadlarda amalga oshirilganda esa fojiaiy oqibatlarga olib keladi. Bugungi kunda ham mutaassib guruhlar o'z g'arazli maqsadlari yo'lida Islom dinidagi ba'zi tushuncha va g'oyalardan ustalik bilan foydalanmoqdalar. Bularga misol tariqasida takfir (kofirga chiqarish), jehod, hijrat, shahidlik va boshqa shu kabi tushunchalarni keltirish mumkin. Islom tarixida gunohi kabira (katta gunoh) qilgan kishilarni kofirlikda ayblash bilan tanilgan dastlabki guruh xorijiyalar edi. Ular faqat o'zlarini musulmon bilib, qolgan hammani, hatto jannatli ekanliklari habar berilgan ba'zi sahobalarni ham kofir deb e'lon qilish darajasiga borgandilar. Bugun ham aksar buzuq aqida a'zolari bu g'oyalarni o'ziga dasturilamal qilib olgan. Abdulloh ibn Amr roziallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Tili va qo'lidan boshqalar ozor ko'rmagan kishi haqiqiy musulmondur. Alloh taolo qaytargan narsalardan hijrat qilgan inson haqiqiy muhajirdir"³⁸, dedilar." Ulamolar ushbu hadisni sharhlab, undagi "hijrat"dan murod "tark qilishdir", deganlar. Bu va bu kabi hadislarini tushunishda avvalo, zabardast allomalarmizning so'zlariga quloq tutamiz. Ular yuqoridagi hadislarini dalil qilgan holda Alloh yo'lida o'z nafsi va xohishiga qarshi kurashgan kishi haqiqiy mujahid, gunohlardan hijrat qilgan, ya'ni tiyilgan kishi haqiqiy muhajir ekanligini aytib o'tishgan. Ming afsuski, aqidaparast guruhlar "hijrat" tushunchasini o'z mafkuraviy qarashlariga mos ravishda ataylab noto'g'ri talqin qilishadi. Ular odamlarni Islom diyoribo'lgan, musulmonlar istiqomat qiladigan, azon aytiladigan, juma va hayit namozlari o'qiladigan, xullas, Islomning besh arkoni emin-erkin ado etiladigan, musulmonlar tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan Vatanni tark etishga chaqirishyapti. Vaholanki, ona yurtni tashlab, o'zga yurtlarda darbadar, sarson-sargardon yurish, e'tiqodi buzuq, maqsadi noma'lum kimsalar bilan birlashib, kindik qoni to'kilgan ona yurtga qarshi qurol ko'tarish islom ta'limotiga mutlaqo zid ekani hammaga ayon. "Shahid", "shahodat" so'zlari aslida "guvoh", "hozir bo' - lmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Istilohda esa shahid deb Alloh yo'lida qatl qilingan mo'min-musulmonlarga aytiladi. Ushbu yuksak darajaga erishgan insonlarga jannat yoki ko'plab yaxshiliklar xushxabari berilganiga farishtalar guvoh, ya'ni shohid bo'lganligi sababli aynan shu so'z ishlatilgan. Alloh yo'lida dushman bilan bo'lgan jangda Vatani, oilasi, millati, dinini himoya qilgan holda vafot etgan inson shahid sanaladi. Bugungi kunda turli aldovlarga uchib, ozod va obod o'lkasini, shirin g'oshasini, osoyishta oilasini, shirindan shakar bola-chaqasini va

³⁸ Imomi Buxoriy (6484)

mehribon ota-onasini qo'yib, qaysidir tog'u toshlardagi lagerlar, jang va jadal- lar girdobidagi joylarga hijrat qilib ketayotganlar ayni vatangadodirlar. Ular tinch-totuv yashab kelayotgan musulmonlarning ozod va obod o'lkalarini urush maydonlariga aylantirishni ko'zlab, jihad qilishga chorlayotgan vatanfurushlardir. Ko'rib turganimizdek, dinni noto'g'ri tushunish, diniy atamalarni boshqa maqsadda talqin qilish oqibatida jamiyat izdan chiqadi, taraqqiyot va rivojlanish ortga suriladi. Hayot gultoji sanalgan inson umri bevaqt hazon bo'ladi. Buning sababi esa johillik, ilmsizlik, mutaassiblikdir. Shunday ekan, bilmaganini so'rab o'rganish, hayotni boricha qabul qilish, inson manfaati yo'lida say-harakatda bo'lish oliy maqsadga aylanmog'i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Jaholatga qarshi ma'rifat"(O'quv qo'llanma)
2. "Fiqh va aqoidga oid ixtilofli masalalar yechimi"
3. "Soxta salafiylarning sayoz sabog'i"